Ключевые слова: технология, игра, инновация, творческий педагог, компетентность, личность, интерактивные методы, глобализация, социализация, общество, комплексный подход, проектное обучение, развивающее обучение.

KIRISH

Mamlakatimizda yurtboshimiz boshchiligida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh maqsadi – barkamol insonni voyaga yetkazish va yurt istiqbolini porloq qilishdan iboratdir. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish orqali ta'limning keyingi bo'g'inlari salohiyatini mustahkamlash mumkinligi aniq belgilab berilgan. Xususan, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejiz bildirmagan edilar: *"Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi."*

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosini o'yinli texnologiyalar tashkil qiladi. Bu yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin bo'lganligi bois, u ta'lim texnologiyasi sifatida tatbiq etilgan. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarning faolligi va tasavvuri tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra, mehnat va o'qish bilan bir qatorda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yin – ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi bo'lib, unda shaxsning o'z xulqini boshqarish qobiliyati shakllanadi va takomillashadi. Maktabgacha ta'lim mutaxassislari ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni yaratish va joriy etish zamonaviy bolalar bog'chasini rivojlantirish uchun zaruriy shart, degan fikrga kelishgan. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha tarbiyachilar tomonidan ijobiy qabul qilinadi, ular faoliyatni osongina o'zgartira oladilar.

O'z navbatida, ota-ona jamoatchiligi bilan bolalar bog'chasining o'zaro ta'siri mexanizmlarini takomillash-tirish zarurati ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois maktabgacha ta'limdagi innovatsion texnologiyalar o'yinli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq, biroq ular bir xil tushuncha emas. Innovatsiyalar turli yo'nalishlarda

1 Sh.Mirziyoyev 2017-yil 9-sentabr kuni "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish" chora tadbirlari to'g'risidagi buyrug'i. <https://www.lex.uz/docs/-3334234?ONDATE=09.11.2021&ONDATE2=09.10.2020&action=compare>



qo'llaniladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi o'z faoliyatini samarali (mavzuga yo'naltirilgan), tejamkor (shaxsga yo'naltirilgan) va hamkorlik texnologiyalariga asoslanib amalga oshirishi lozim. Tajribali, kreativ pedagog ushbu uslublar asosida o'zining "mualliflik" texnologiyasini yaratishi mumkin. Bunda unga avval egallangan bilimlar va shakllangan dunyoqarash turtki bo'ladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar paydo bo'lish tarixi tahliliga ko'ra, ularning ta'lim jarayoniga kirib kelishida g'oyalar banki muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, italiyalik shifokor Mariya Montessori – asl kasbi tarbiya bilan bog'liq bo'lmasa-da, o'zining boy tafakkuri orqali o'ziga xos ta'lim usulini yaratdi. Unga ko'ra: "Usul har bir bolaning noyoblighi aksiomaga asoslanadi va ta'lim-tarbiya uchun maxsus yondashuvni talab qiladi. Ta'lim tizimi uch qismdan iborat: o'qituvchi, bola va atrof-muhit." Uning nazariyasi uch asosiy tamoyilga asoslanadi:

- bolaning maksimal erkinligi, rivojlanish va ta'lim taraqqiyoti uchun imkoniyat yaratish;
- individual trening dasturini tuzish;
- o'qituvchining minimal aralashuvi va o'quv natijalari ustidan an'anaviy avtoritar nazoratning yo'qligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'rgazmali tafakkur orqali anglash davrida bo'lganliklari sababli barcha yangi bilimlar ko'rgazmalilikka asoslanadi. Bu yoshdagi bolalar bilan ishlashda innovatsion pedagogik texnologiyalar sifatida interfaol metodlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki mazkur metodlar orqali:

- har bir bola o'z individual qobiliyatlarini namoyon eta oladi;
- mantiqiy o'yinlar o'ynash bolaning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- atrof-muhit hodisalari haqida aniq tasavvurlar shakllanadi;
- bola ruhan va jismonan rivojlanadi;
- o'z oldiga maqsad qo'yib, uni amalga oshirishga o'rganadi;
- qiyin vaziyatlarda mustaqil yechim topish ko'nikmasi shakllanadi.

Shuningdek, bolalarning nutq ravonligini, fikrni erkin bayon etish ko'nikmasini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Interfaol metodlar bolalarning faol o'zaro ta'sir sharoitida o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Birgalikdagi faoliyatlardan zavq oluvchi bolalar uchun bunday usullar yangi bilimlarni o'zlashtirishda qiziqarli va taassurotli kechadi. Faqat tarbiyachi bu usullarni bolalarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirgan holda qo'llashi lozim. Bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan "Davlat talablari" va "Ilk qadam" davlat dasturida bolaning umumiy rivojlanish sohasi kompetensiyalarining muhim yo'nalishlari belgilangan. Unga ko'ra, 6–7 yoshli maktabgacha bolaning umumiy kompetensiyalari quyidagilardan iborat.

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

1. **O'yin kompetensiyasi** – bolaning o'yin jarayonida va uni tashkil etishda tajriba, bilim hamda ko'nikmalardan ijodiy foydalanish qobiliyati.
2. **Ijtimoiy kompetensiya** – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan axloq-odob me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta bilish mahorati.
3. **Bilish kompetensiyasi** – atrof-muhitni ongli idrok etish va bilim, ko'nikma, malaka hamda qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanish.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni bolalar ta'lim jarayonida qo'llashda, avvalo, yuqoridagi kompetensiyalarning qaysi biri uchun maqbulligini aniqlash hamda ustuvor jihatlarini hisobga olish zarur. Masalan, mantiqiy o'yinlar va tajribalar ustida ishlash bolaning bilish kompetensiyasini, so'z o'yinlari esa kommunikativlikni rivojlantiradi. Shu bois usullarni tanlash va muvofiqlashtirish asosida olib borish muhimdir.

Hozirgi davrning inqilobiy hodisalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijtimoiy munosabatlardagi nomutanosibliklar jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Agar erta yoshdan bolalarda ijtimoiy hayot qadriyatlari shakllantirilib borilsa, kelajakda sog'lom hayot tarzini yaratish uchun zamin yaratiladi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki zarur ehtiyojdir. Biroq, bu texnologiyalarni qo'llashda bir nechta qat'iy talablar mavjud:

1. **Kontseptuallik** – o'quv jarayoni ma'lum ilmiy konsepsiyaga asoslanishi kerak;
2. **Tizimlilik** – texnologiyalar yaxlit, mantiqan bog'langan va o'zaro uzviy aloqador bo'lishi zarur;
3. **Ishlov berishlik** – pedagogik jamoa maqsadlarni belgilash, jarayonni rejalashtirish va zaruratga ko'ra tuzatishlar kiritish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;
4. **Reproduktivlik** – texnologiya uni qo'llayotgan o'qituvchi shaxsidan qat'i nazar, bir xil samaradorlikni ta'minlashi lozim.

Ta'lim innovatsiyasi deyilganda, avvalo, mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish tushuniladi. Texnologik yondashuv asta-sekin takomillashib, innovatsion xarakter kasb etdi. Masalan, maktabgacha



ta'lim tizimidagi an'anaviy mashg'ulotlarda tarbiyachi faol, bola esa tinglovchi rolda bo'lgan. Biroq bunday yondashuv ta'lim samaradorligini oshirmasligi tajribada isbotlandi. Shu bois ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish zarurati texnologik yondashuvlar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Har qanday yangilik ehtiyoj natijasida yuzaga keladi. Ehtiyoj qanchalik yuqori bo'lsa, natijaning samaradorlik darajasi ham shunchalik oshadi. Ta'lim innovatsiyalari deyilganda, ko'z oldimizda, albatta, yangi pedagogik texnologiyalar gavdalanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagog ta'lim jarayonini innovatsiyalashtirishda texnologiyalarni qo'llashni nazarda tutadi. Innovatsiya – yangilik kiritish bo'lsa, texnologiya – mahorat va san'at sifatida gavdalanib, innovatsion texnologiyalar yuzaga keladi. Demak, tarbiyachining innovatsion faoliyati – bu uning pedagogik mahorati belgisidir. Mahorat qanchalik yuksalishda bo'lsa, novatorlikka aylanib boradi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalana olish uchun tarbiyachi-pedagog quyidagi bilimlarni o'zida mujasamlantirishi lozim:

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi;
- yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo'lishi;
- ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar yoshiga mos keladigan didaktik o'yinlar va interfaol usullarni tanlay bilish qobiliyati;
- ilg'or, yangilanayotgan pedagogik g'oyalar bilan tanishib borish; bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirish asosida o'z kasbiy pozitsiyasini shakllantirib borish;
- ta'limiy faoliyatlarda harakatli o'yinlardan foydalana olish;
- turli yo'nalishdagi bilimlarni integratsiyalashtirish holda amaliyotda o'rgatishga erishish.

Faoliyatni yangilash uchun bosqichda – tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi, – degan edi mashhur pedagog A. Nikolskaya. Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida do'stona muhit yaratish, bolalarni yangiliklarga qiziqitirish, o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish, AKT va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtirish olish, ta'limiy faoliyatga nisbatan munosabatni o'zgartirishdir.

Innovatsion texnologiyalarning turlari quyidagicha tasniflanadi:

- bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim;
- rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
- o'yinli ta'lim texnologiyasi;
- loyihaviy ta'lim texnologiyasi;
- muammoli ta'lim texnologiyasi;
- axborot va aloqa vositalaridan foydalanish.

Innovatsion texnologiyalarning har bir turi tarbiyalanuvchilarda faqatgina yangi bilim hosil qilishga xizmat qilibgina qolmay, balki ularda har tomonlama rivojlanish mexanizmlarini tarkib toptirishga ham xizmat qiladi. Ma'naviy savodxonligi sust bo'lgan inson hayot davomida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar oldida esankirab qolishi mumkin. Ayniqsa, ommaviy madaniyat unsurlaridan saqlanishda ruhiy barkamollikning yoshlikdan shakllantirilishi g'oyatda zarur. Shu sababli ta'lim innovatsiyalarida tarbiyaviy ta'sir elementlarini uyg'unlashtirishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, innovatsion ta'limiy texnologiyalar qatoriga integral loyihalashtirish faoliyatini kiritish zarur. Chunki bunday yondashuvga tayanib, ko'p tomonlama yaxlit tasavvurlarni shakllantirish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini isloh qilishni Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida inson kapitali tushunchasi bilan bog'laydi. Ya'ni, rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15–17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart ^[3, 224-bet], – deb yozadi davlatimiz rahbari. Demak, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda Prezident asarlari, ma'ruzalari, Farmonlari va Qarorlarida belgilangan vazifalar metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish yuzasidan alohida adabiyotlar va tadqiqot ishlari juda kam. Bu boradagi manbalarning faqatgina elektron resurslari mavjud



bo'lib, ularni ham internetning turli veb-saytlaridan topib, tarjima qilib o'rganish mumkin. Masalan, bu mavzuda B. E. Parmonov, I. G'. Mamajonov, R. Mamatovlar, M. X. Qilichovalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

B. E. Parmonov "Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlarini" maqolasida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini yoritgan. Jumladan, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlar tajribalarini tahliliy o'rgangan. I. G'. Mamajonov va R. Mamatovlar esa "Germaniya davlati ta'lim tizimi"ni o'rganishda qisman maktabgacha ta'lim tizimiga oid ma'lumotlarni kiritib o'tganlar. M. X. Qilichova maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning o'ziga xos jihatlarini o'rgangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim standartlariga ko'ra, maktabgacha ta'lim – maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi hamda hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul turli davlatlarda turlicha amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul yoshi quyidagicha: O'zbekiston – 1 yosh, Germaniya – 4 oylik, Yaponiya – 3 yosh, Italiya va Xitoy – 1 yosh.

O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunning 34-moddasiga binoan, bolalar yoshlariga qarab guruhlariga ajratiladi. Jumladan:

- ilk rivojlanish guruhi – 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- kichik guruh – 3 yoshdan 4 yoshgacha;
- o'rta guruh – 4 yoshdan 5 yoshgacha;
- katta guruh – 5 yoshdan 6 yoshgacha;
- maktabga tayyorlov guruhi – 6 yoshdan 7 yoshgacha.

Germaniyada esa bolalarga nafaqa chiqqan bobo-buvilar nabiralarga qarashi kerak degan tushuncha mavjud emas. Shuning uchun ota-onalar farzandlarini 4 oyligidan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotiga berishga majburlar. Ko'pgina nemis oilalari farzandlarini ancha erta bog'chaga beradilar. Germaniyada maktabgacha ta'limning 6 xil turi mavjud bo'lib, ular bir-biridan tubdan farq qiladi va rang-barangligi bilan boshqa davlatlarnikidan ajralib turadi. Yaponiya, Italiya va Xitoy davlatlarida bolalar asosan 3 yoshdan maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilinadi. Faqat juda majbur bo'lgan oilalar farzandlarini bolalarga qarash markazlariga berishlari mumkin. Masalan, Yaponiyada bolalar yaslisiga (bolaga qarash markazi) bolani 3 oyligidan berish mumkin, biroq bu holat keng tarqalgan emas, chunki bunday yoshda bolani yasliga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabab bo'lishi kerak. Shuningdek, bunday ayol jamiyat tomonidan yaxshi ona deb baholanmaydi. Atrofdagilarning fikri esa yaponlar uchun eng muhim omil hisoblanadi.

Yaponiyada bolalar yaslisiga faqat ota-onasi ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Buning uchun munitsipalitetga ota-ona ish joyidan ma'lumotnoma hamda oilada boshqa bolaga qarab turuvchi oila a'zosi yo'qligi haqida hujjatlar taqdim etilishi talab qilinadi. Mamlakatimizda esa bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotiga 1 yoshdan qabul qilinadi. Farzandi 3 yoshga to'lmagan onalarga mehnat qonunchiligida imtiyozlar belgilangan. Davlatimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrovni oshirish va maktabgacha tayyorlovni to'liq amalga oshirish maqsadida yangi tahrirdagi qonun hujjatlariga tegishli normalar kiritdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq, maktabgacha ta'lim va tarbiya 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi [9, 8-modd].

Endilikda respublikamizdagi 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan barcha ta'lim olishga layoqati bo'lgan bolalar davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir yillik tayyorlov guruhida boshlang'ich sinflarga tayyorlanadi hamda ularga sertifikat beriladi. Bu jarayon rivojlangan mamlakatlarda esa ancha ilgari boshlanadi. Masalan, Italiyada bolalar 3 yoshdan 6 yoshgacha maktabga tayyorlanadilar. Bu jarayon davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va xususiy katolik bog'chalarida amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada esa 1988-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun kuchga kirgan. Unda nafaqat ta'lim standartlari, balki bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida ruhiy rivojlanish darajasiga bazaviy baho berish tartibi ham belgilangan. Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta'lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi. Shu bois majburiy ta'limda o'qitishni boshlash muddati Yevropada eng erta hisoblanadi.

Singapurda ham maktabgacha ta'lim – ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalar 3 yoshdan qabul qilinadi. Ikki-uch yil davomida ularga ona tili va ingliz tili, o'qish, sanash, kuylash, rasm chizish, raqs tushish kabi mashg'ulotlar o'rgatiladi. Singapurda davlatga qarashli maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud emas. Ularning barchasi xususiy bo'lib, ayrimlari diniy tashkilotlar yoki jamg'armalar tomonidan boshqariladi.



Uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganar ekanmiz, har bir davlat o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bu xosliklar qaysidir jihatdan o'sha mamlakatlarning rivojlanishiga, taraqqiy etishiga ham xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga hattoki tarixning o'zi ham guvohdir. Masalan, yaponlardagi bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari ham inobatga olingan: yozish va o'qishdan tashqari bolalarga qo'shiq aytish o'rgatiladi, sport musobaqalari o'tkazilib, muntazam sayrlarga chiqib turiladi. Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarning o'tkazilishidan maqsad – bolada hamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat. Qo'shiq aytilsa, xor (jamoada) aytilishi kerak, yakkaxon qo'shiqchi qo'llanilmaydi. Musobaqa o'tkazilayotganda esa yoki hamma, yoki guruh g'oliblikka erishadi – mutlaqo yakka g'olib bo'lmaydi. Bu yapon jamiyatini modernizatsiya qilishda "qo'lni qo'lga berish" tamoyiliga yo'naltiradi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun yapon sidqidildan xizmat qiladi. Dunyo bozorini egallagan Xitoy ham bu natijaga ta'limni isloh qilish orqali erishdi. Xitoy xalqi butun dunyoga o'zining mehnatsevarligi bilan mashhur. Ikkinchi jahon urushidan so'ng qisqa muddat ichida Xitoy mahsulotlarining dunyo bozorini to'ldirganligi buning yaqqol isbotidir.

Xitoyliklar juda intizomli va sportsevar xalq. Albatta, farzand tarbiyasida ham bu o'z aksini topgan. Agar Yevropa mamlakatlarida bola tarbiyasiga asosan ota-ona mas'ul bo'lsa, Xitoyda bu narsa davlat zimmasidadir. Uch oydan boshlab chaqaloq bog'chaga topshiriladi. Bir yarim yoshdan boshlab kichik xitoyliklar raqs tushish, ashula aytish, rasm chizish, sanash va harflarni tanishga o'rgatila boshlanadi. Bog'chalarda tarbiya bilan birgalikda jismoniy rivojlanishga katta e'tibor beriladi. Bolaning qiziqishlari inobatga olinib, uning iqtidorini namoyish etishga harakat qilinadi. Boshlang'ich sinfdanoq intizomli bo'lish, inijlik qilmaslik va yaxshi o'qish talab etiladi. Itoatkorlik va "men"ni yuzaga chiqarmaslik – xitoy tarbiyasining asosidir. Xitoylik bolalarda bolaligidanoq uchta asosiy fazilat – mehnat qobiliyati, intizom va kattalarga hurmat shakllantiriladi. Ularga yoshligidanoq, nima bo'lishidan qat'i nazar, ular eng yaxshi bo'lishi kerakligi o'rgatiladi. Ehtimol, shuning uchun xitoyliklar fan, madaniyat va san'atning barcha sohalarida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqdalar. Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta'lim o'quv rejasida nafaqat umumiy ta'lim jarayoniga urg'u beriladi, balki boladagi o'qish va hisoblash kabi ko'nikmalarga alohida ahamiyat beriladi. Bunda 4–5 yoshdagi bolalarning rivojlanishining olti yo'nalishidagi aniq ko'nikma va bilimlari belgilanadi: shaxsiy, ijtimoiy-emotsional, kommunikativ, xabardorlik, matematik, jismoniy va ijodiy. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p o'ynashlari kerak, biroq adabiyot va matematikani bilish doirasidagi talablar shunchalik yuqoriki, o'yin uchun vaqt qolmaydi.

XULOSA

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida ommalashib borayotgan ta'limiy faoliyatlar innovatsion xarakter kasb etmoqda. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berishda innovatsion yangi texnologiya loyihalarini yaratish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirmoqda. Maktabgacha yosh davrida o'yin ustuvor ahamiyat kasb etganligi bois, bolalar bilan interfaol metodlar o'yin tarzida olib boriladi. Tarbiyachilarning innovatsion ta'limga kirib borishlarida eng maqbul o'yin texnologiyalarini ishlab chiqish va dastur sifatida joriy etish – muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Bugungi kungacha eng ustuvor o'yinlar mazmuniga asoslanib, ularni takomillashtirish hamda ta'lim-tarbiyaviy xarakterdagi talablarga moslashtirilgan innovatsion o'yinlar texnologiyasini ishlab chiqish va uni qo'llanma sifatida barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tatbiq etish lozim. Ana shunda barcha mutaxassislar bolalar bilan faoliyat olib borishda qiyinchilikka kamroq duch keladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. <https://www.lex.uz/docs/-3334234?ONDATE=09.11.2021&ONDATE2=09.10.2020&action=compare>
2. Низомова, Шохиста Шодиевна. Сув ва олов образларининг адабий-ирфоний асослари. Scientific Impulse, 1(4), 2022, 1391–1395.
3. Низомова, Shoxista. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush tizimini shakllantirish. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 1(1), 2020.
4. Nizomova, Sh. Sh. Symbolic-Emblematic Expression of Water Bodies and Structures in Modern Poetry. American Journal of Science and Learning for Development, 1(2), 2022, 126–128.
5. Низомова, Ш. Ш. Сув ва оловга маросимий муносабатларнинг замонавий шеърятдаги талқини. Involta Scientific Journal, 1(3), 2022, 191–199.
6. Низомова, Ш. Ш. Замонавий шеърятда олов образларининг бадий талқин хусусиятлари. Scientific Impulse, 1(4), 2022, 1396–1400.
7. Shodiyevna, Nizomova Shoxista. The Symbolism of Fire and Water in Poetic Context. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2(2), 2022, 170–174.
8. Низомова, Shoxista. Maktabgacha yoshdagi bolalarga badiiy adabiyot bilan ishlashni o'rgatish. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 33(33), 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.